



INNOVATION FAOLIYATNI TA'LIM TARBIYA JARAYONIDAGI AHAMIYATI

M. Bobojonov

"BTM" kafedrasi o`qituvchi

Annotatsiya: O`quvchilarni ta'lism-tarbiya jarayonini yuqori darajada tashkil qilish bilan birga, o`quvchilarni noan`anaviy shaklda darslarni tashkil qilish orqali yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlash.

Kalit so'zlar: innovatsion, faoliyat, yaratuvchi fikr, aqliy faoliyat, mustaqil ish, individual ishlar, o`zlashtirish darjasи.

Hozirgi davrda yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash borasida yangi O`zbekistonimizda ta'lism sohasida izchil ravishda amaliy ishlar olib borilmoqda. Ta'lism -tarbiya maskanlari hozirgi davrning barcha talablariga javob beradigan qiyofa kasb etmoqda va ularda tomirida buyuk ajdodlarimizning qoni oqayotgan baxtiyor yoshlarimiz kamolga yetishmoqdalar. Mamlakatimizning istiqlol yo`lidagi birinchi qadamlaridanoq yurtimizda milliy qadriyatlarni qayta tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lism-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash va zamon talablari bilan uyg`unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga ko`tarishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

So`nggi yillarda mamlakatimizda ta'lism-tarbiya tizimining jahon andozalariga har tomonlama mos kelishi yo`lida ulkan islohotlar olib borilmoqda. Bundan ko`zlangan maqsad – hozirgi davr talablariga javob beradigan, ilmiy, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishni ta'minlay oladigan hamda yuksak ma`naviy va axloqiy sifatlarga ega bo`lgan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdir. Ko`rinib turibdiki, ayni paytdagi ilm-fan taraqqiyoti shunday kadrlarni talab etmoqda.

Innovatsiya – inglizcha (innovation) „yangilik, yangilik kiritish” degani. A. I. Prigojin fikricha, innovatsiya deganda, muayyan ijtimoiy birlikka tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg`un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o`zgarishlar tushuniladi.

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o`rin tutadi. Shuningdek, pedagogika fanida xususiy, shartli, mahalliy va sub`ektiv yangilikka qiziqish tushunchalari mavjud.

Xususiy yangilik joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko`zda tutadi.



Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi.

Mahalliy yangilik – konkret ob'ektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi.

Sub'ektiv yangilik – ma'lum ob'ekt uchun ob'ektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi.

Ilmiy yo`nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik – bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

Yangilikni faqatgina o`qituvchi yoki olimlargina yaratmaydi, balki ba'zi iste'dodli, yangilikka intiluvchi o`quvchi yoshlar ham ishlab chiqadi. O`quvchi yoshlar ishlab chiqqan yangi innovatsion g'oyalarni esa, o`qituvchi-muallimlar tekshirib, xato- kamchiliklarini tuzatishga o`rgatadilar va birgalikda to`g'irlashga harakat qiladilar.

O`qituvchining innovatsion faoliyati o`z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi. Shunday ekan, barcha o`qituvchilar o`qib izlanishga, yangilik yaratishga intilayotgan yoshlarni qo'llab- quvvatlashlari zarur. Chunki innovatsion faoliyat ta'lim jarayonida o`zining foydaliligi, o`quvchi yoshlarning ta'lim olishga qiziqishini oshirib borishi bilan ahamiyatlidir.

Oliygohimiz -muqaddas maskan. Talabalarning deyarli barchasida uyali aloqa bor. Telefondan bo`lar-bo`lmasga foydalanuvchi talabalar ham oramizda yo`q emas. Ular ham sog`ligiga, ham oilasi iqtisodiga zarar yetkazayotganini bilisharmikan? Talabalarimiz mutaxassisligimizga oid elektron darsliklar, o`quv qo`llanmalar, o`quv-uslubiy majmualardan foydalansalar o`z ustilarida tinmay ishlasalar kelgusida yetuk mutaxassis, jamiyatimizga foydasi tegadigan kadrlar bo`lib yetishadilar. Hozirgi kunda internet "tuzog`i"ga tushib, uning girdobidan chiqolmay yurganlar yoki internet orqali his-tuyg`ulari poymon bo`lgan insonlar ozmi? Shu "o`rgimchak to`ri" orqali milliy mentalitetimizga ma`naviy va ruhiy tahdid solayotganlar bor. Bu narsa hatto o`g`irliliklarga ham yo`l ochib bermoqda.

Internetdagagi turli mafkuramizga yot g`oyalarni targ`ib qiluvchi saytlarga kirib, aldanib qolayotganlar, ota-onasi, vatanidan voz kechib, o`ligi xor bo`lib qolayotganlar ozmi? Olimlarning ta`kidlashicha, har bir inson hayotining o`rtacha 2-3 yilini telefonda gaplashishga sarflar ekan. Xattoki o`qiyotgan kitoblari ham telefon ichida. Uning ultrabinafsha nurlaridan insonlar qanchalik zarar ko`rishini bilisharmikan? Biz bu bilan telefondan foydalanmanglar demoqchi emasmiz. Lekin hamma narsaning me`yori yaxshi. Ana shu maqsadda Vazirlar



Mahkamasining 2012-yil 21-maydagi 139-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi ta'lif muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish to'g'risida"gi Nizom yangi o'quv yili boshlanganligi munosabati bilan yana dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Shuning uchun telefonlardan ham faqat zarur vaqtarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Internet foydalanuvchilari o'rtaida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, o'rtacha hisobda bir kishi bir oy davomida 90 soat vaqtini virtual olam uchun sarflashi aniqlandi. Bu haftasiga 21 soat degani. Ashaddiy foydalanuvchilar esa haftasiga kamida 50 soatni internetni sayr qilib o'tkazar ekan. Internetdan zarur ma'lumotlarni olishda biz quyidagi ko'rsatmalarga amal qilsak, salomatligimizga xavf tug'dirmagan bo'lamic:

- monitorni ko'zingizdan 50 santimetr uzoqlikda joylashishiga e'tibor bering;
- xona to'g'ri yoritilishiga ahamiyat bering;
- har 15 daqiqada ko'zingizni dam oldiring.

Texnika insonlarning foydali xizmati uchun yaratilgan, shuning uchun uni o'zimizga qarshi ishlatmaylik!

ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Q. A va boshqalar. Boshlang'ich ta'lif kontsepsiysi.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy dasturi.
3. M. X. To'xtaxo'jayeva Pedagogika nazariyasi va tarixi - 2018 Toshkent.